

Farg'onaviyotidachakana vaulgurjisavdotovaraylanmasi

2026- yil yanvar dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR


I. CHAKANASAVDOTOVARAYLANMASI

2026-yil 1- fevral holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 7361 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 151 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 7 210 tani tashkil qildi.


2026- yilning yanvar oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 2 704,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning yanvar oyiga nisbatan 110,5% ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 283,4 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 119,6%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 2 102,9 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,7%), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 297,9 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 114,5%) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1- fevral holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 4306 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 29 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 4277 tani tashkil qildi. Viloyat bo'yicha 2026- yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 966,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 11,9 % ga o'sdi.


Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 1 929,2 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 113,7 % ga to'g'ri keldi va viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 98,1% ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi(mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Farg'ona shahar (5,8 m) va Qo'qonda (114,7) kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari(foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026- yil 1- fevral holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 945 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 5 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 940 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 1 551,2 mlrd so'mga yetdi. 2025- yilning mos davriga nisbatan 116,9 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 96,6 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovara ylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi – 2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

Chopetishgamasul: Xizmatlar vasavdo sohasi statistikasibo'limi	Bo'limboshlig'i: Tel: +998732419768	Ijrochi: N.Mahmudova Tel: +998732419768	Manzil: Farg'onash., Oq'yolko'chasi, 104-a
---	---	---	--